

QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASIDA MAKTABGACHA TA‘LIM TIZIMINING HUDUDIY TASHKIL ETILISHI

Turg‘anbaev D.N.,

Ajiniyoz nomidagi NDPI Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari ta‘lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15170717>

Kirish. Aholiga xizmat ko‘rsatish tarmoqlari qatoriga kiradigan ta‘lim tizimi har qanday davlatning rivojlanishining asosi. Sababi iqtisodiyotni harakatga keltiradigan yuqori malakaga ega ishchi kuchi ta‘lim tizimining natijasida paydo bo‘ladi. Dunyo tarixiga yoki bugungi kundagi ahvolga qarasak ham ta‘lim tizimi kuchli davlatlar dunyoning eng rivojlangan davlatlari hisoblanadi. Ta‘lim tizimida innovatsiyalarni keng miqyosda olib borayotgan, novatorlik qobiliyati kuchli “aqilli boshlarni” qo‘llab-quvvatlash bu davlatlarning har taraflama rivojlanishining asosi. Dunyoning rivojlangan davlatlaridagi ta‘lim tizimining qolgan davlatlardan farqi, nazariya bilan birgalikda amaliyotning juda yaxshi tashkillashtirilganligida ko‘rishimiz mumkin.

Asosiy qism. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev 2020-yil 24-yanvar kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatida “faqat yoshlarimizni emas, barcha jamiyatimiz a‘zolarining bilimini, saviyasini oshirish uchun eng birinchi ilm, yuqori ma‘naviyat kerak. Ilm yo‘q joyda qoloqlik, jaholat, va albatta to‘g‘ri yo‘ldan adashish bo‘ladi” - degan edi.

Prezidentimizning ta‘lim tizimiga alohida e‘tibori natijasida bu tarmoqda juda katta vazifalar bajarilmoqda, yig‘ilib qolgan muammolar bartaraf e‘tilmoqda.

Ta‘lim tizimi tashkilotlarining joylashtirilishi, rivojlantirilishi va ularning hududiy farqlarini o‘rganishni iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining tarmoqlari bo‘lgan – ta‘lim geografiyasi va xizmat ko‘rsatish tarmoqlari geografiyasi o‘rganadi. Hohlagan hudud, makondagi ta‘lim tizimi bo‘ladigan bo‘lsa, uning predmeti shu makondagi ta‘lim tizimi, ya‘ni maktabgacha ta‘lim muassasalari, umumiy o‘rta ta‘lim berish muassasalari, o‘rta-maxsus, kasb-hunar ta‘limi o‘quv muassasalari, oliy o‘quv yurtlari, oliy o‘quv yurtlaridan keyingi ta‘lim muassasalari, kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish muassasalarining faoliyati va ularda ta‘lim olayotganlar soni, maktabdan tashqari bilim olayotganlar sonining hududiy o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Ta‘lim – aholiga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish tarmoqlarining eng asosiy tarmog‘i hisoblanadi. Bu tizim davlatimizda: maktabgacha ta‘lim (bolalar bog‘chalari), umumiy o‘rta ta‘lim (umumiy o‘rta ta‘lim maktablari), o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi (akademik litseylar, kasb-hunar kolledjlari, oliy o‘quv yurtlari yonidagi

“O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDLARINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING GEOGRAFIK ASOSLARI”

Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi

texnikumlar), oliy ta’lim (oliy o‘quv yurtlari), oliy ta’limdan keyingi ta’lim bosqichi (tayanch doktorantura, adyunktura, doktorantura, mustaqil izlanuvchi, stajyor izlanuvchi), kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish va maktabdan tashqari ta’lim tizimlaridan tashkil topgan.

Maktabgacha ta’lim muassasalari ta’lim tizimining boshlang‘ich bosqichi bo‘lib, u bolalarning ta’lim-tarbiya olishida katta ahamiyatga ega.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududida 809 ta bolalar bog‘chalari bor bo‘lib, shundan 419 tasi shaharlarda, 390 tasi qishloq joylarda joylashan. Bog‘chalarning bolalarni qa‘bul qilish quvvati 68 651 bola bo‘lsa, bugungi kunda 94 826 bolalar ta’lim-tarbiya olmoqda. Ya‘niy 26 175 bola bog‘chalardagi joy etishmasligidan qo‘shimcha joylashtirilgan. Shaharlardagi bog‘chalarning qa‘bul qilish quvvati 35 698 bola bo‘lib, ularda 58 758 bola joylashtirilgan. Bog‘chalarning qamrab olish darajasi 164,6 % ga teng. Qishloqlardagi bog‘chalarning qa‘bul qilish quvvati 32 953 bola bo‘lib, ularda 36 068 bola joylashtirilgan, yoki bog‘chalarning qamrab olish darajasi 109,4 % ga teng (1-jadval).

Hududlar bo‘yicha oladigan bo‘lsak, Nukus shahrida 3 yoshdan 6 yoshgacha bolalar soni 23 032 bo‘lib, shahardagi 99 bolalar bog‘chalaridagi 12 950 o‘ringa 19 203 bola joylashtirilgan. Shaharda bolalarni bog‘chalarga qamrab olish respublikada Mo‘ynoq tumanidan keying ikkinchi ko‘rsatkich hisoblanadi.

Yirik xizmat ko‘rsatish muassasalari aholi zich joylashgan hududlarda joylashtiriladi. Mahsuloti sifatli, xizmat ko‘rsatish darajasi yuqori va tartibli turda tizimlashtirilgan xizmat ko‘rsatish muassasalaridan hamma foydalanadi.

1-jadval

Maktabgacha ta’lim tizimi

Nomlanishi	Jami	Shundan,	
		shaharda	qishloqda
Maktabgacha ta’lim muassasalarining umumiy soni	809	419	390
- bola qa‘bul qilish quvvati	68651	35698	32953
- tarbiyalanuvchi bolalar soni	94826	58758	36068
- quvvatlik bo‘yicha qamrab olish darajasi, %	138,1	164,6	109,4
- tarbiyachilar soni	4333	2632	1701
shundan, xususiyy bog‘chalar	411	197	214
- bola qa‘bul qilish quvvati	14441	7617	6824
- tarbiyalanuvchi bolalar soni	13294	7009	6285
- quvvatlik bo‘yicha qamrab olish	92,1	92,0	92,1

“O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDLARINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING GEOGRAFIK ASOSLARI”

Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi

darajasi, %			
- tarbiyachilar soni	534		
Maktabgacha (3-6 yosh) yoshdagi bolalar	155561	73267	82294
Bolalarni maktabgacha tarbiya muassasalariga qamrab olinishi (%)	61,0	80,2	43,8

Ularning ta’sir kuchi xizmat ko’rsatish radiusi orqali ko’rsatiladi va uni hisoblashda quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$R^{Sr} = \frac{\sqrt{A^{Sr}}}{n} \times 1000$$

Bu yerda: R^{Sr} = xizmat ko’rsatish radiusi;

A^{Sr} = ma’lum turdagi xizmat ko’rsatish areali;

n = ma’lum turdagi xizmat ko’rsatish muassasalarining soni;

1000 = kilometr hisobida metrga o’tish ko’rsatkichi.

Tuman markazlari yoki qishloqlardagi bolalar bog’chalari bilan Nukus shahridagi bolalar bog’chalarining geografik joylashishi o’zgacha. Masalan: Nukus shahrining maydoni 220 km.kv. Bolalar bog’chalari soni 99. Shu ko’rsatkichlar orqali bog’chalarning o’rtacha xizmat ko’rsatish radiusini aniqlab ko’rsak bo’ladi. Buni hisoblashda quyidagicha hisoblaymiz:

$$R^{Sr} = \frac{\sqrt{A^{Sr}}}{n} = \frac{\sqrt{220}}{99} = \frac{14,8}{99} \approx 0,15 \times 1000 = 150$$

Ya’niy Nukus shahrida har bir bolalar bog’chasining o’rtacha xizmat ko’rsatish radiusi 150 metr yoki 0,15 km ni tashkil qiladi. Bu nisbiy o’rtacha ko’rsatkich bo’lib, Nukus shahridagi MFY lardagi aholining zichligi har xil.

Ushbu ko’rsatkich bo’yicha Nukus tumanini olib qarajak, maydoni 940 km.kv. Bolalar bog’chalari soni 29.

$$R^{Sr} = \frac{\sqrt{A^{Sr}}}{n} = \frac{\sqrt{940}}{29} = \frac{30,6}{29} \approx 1,06 \times 1000 = 1060$$

Ya’niy Nukus tumanida har bir bolalar bog’chasining o’rtacha xizmat ko’rsatish radiusi 1060 metr yoki 1,06 km ni tashkil qiladi. Bu ko’rsatkich tuman markazi

“O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDLARINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING GEOGRAFIK ASOSLARI”

Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi

Oqmang‘it posyolkasida pastroq, Kerder, Qutanko‘l, To‘ktau OFY larda ortishi mumkin.

Xulosa. Qoraqalpog‘iston Respublikasida ta‘lim tizimini geografik joylashtirishda kamchiliklar bor. Ularni bartaraf etish uchun xalqaro normalar bo‘yicha ishlar olib borilishi zarur. Masalan, shaharlarda aholi zich bo‘lganligidan qa‘bul qilish darajasi katta bolalar bog‘chalari solinsa, qishloqlar orasi uzoq bo‘lganligidan kichik bog‘chalar tashkillashtirilsa maqsadga muvofiq.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning 12-13-iyun kunlari Qoraqalpog‘iston Respublikasiga tashrifi davomida 2030-yilgacha Qoraqalpog‘istonda 160 ta yangi bog‘cha qurilishi va ta‘mirlanishi, 2 mingta xususiy bog‘cha tashkil qilinishini aytib o‘tdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Iskenderov A. B., Uzaqbaev Q. K., Sharibaev Am D. I. B. Turizm hám rekreaciyalıq geografiya” páninen oqıw-metodikalıq qollanba //Nókis-2019. – 2019. – T. 128.
2. Turdimambetov I. R., Uzaqbaev Q. K., Niyazimbetova G. CURRENT STATUS OF MEDICAL SERVICES IN THE REPUBLIC OF KARAKALPAKSTAN //Science and education in Karakalpakstan.–2020. – 2020. – T. 2. – C. 104-108.
3. Turdimambetov I. R., Uzaqbaev Q. K., Oteuliev M. O. Territorial formation of the education system in improving the quality of life of the population of the Republic of Karakalpakstan //Экономика и социум. – 2020. – №. 12 (79). – C. 276-279.
4. Turdimambetov, I., Joldasov, A., Iskenderov, A., & Uzaqbaev, Q. (2022). Qaraqalpaqstanm ekonomikalıq ham socialliq geografiyasi.
5. Tursinbaevna, Gayrova Roza, and Uzaqbaev Qoblan Keunimjay Uli. "Territorial Location Of Medical Services To The Population In The Republic Of Karakalpakstan." *The American Journal of Applied sciences* 2.11 (2020): 28-33.
6. Узакбаев К. К. АҲОЛИГА ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАЛАРИ ГЕОГРАФИЯСИДА ЯРАТИЛГАН НАЗАРИЯЛАР ТАҲЛИЛИ //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 17. – С. 919-929.
7. Узакбаев К. К. АҲОЛИГА ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАЛАРИНИ ҲУДУДИЙ ТАШКИЛЛАШТИРИШ //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 14. – С. 233-240.
8. Узакбаев К.К. ҚИШЛОҚ ЖОЙЛАРДА АҲОЛИГА ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАЛАРИНИ ҲУДУДИЙ ТАШКИЛ ЭТИШ //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 17. – С. 845-857.
9. Утепова Г. Б., Узакбаев К. К. РОСТ НАСЕЛЕНИЯ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН И ЕГО ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА ТЕРРИТОРИАЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ //Экономика и социум. – 2021. – №. 10 (89). – С. 1121-1130.
10. Eshimbetov U. et al. Territorial composition of agriculture in the Aral Sea Region of Uzbekistan //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – Т. 510. – С. 01040.
11. Ешимбетов У., Наурузбаева Г., Дальжанов К. Методические вопросы анализа и прогнозирования индустриального развития региона с учетом рационального использования минеральных ресурсов //Экономика и социум. – 2020. – №. 12 (79). – С. 532-540.
12. Раджапов М. Я., Умаров Е. К., Искендеров А. Б. Қорақалпоғистон ҳудудининг географик ўрганилиш тарихи //Ўзбекистон география жамияти ахбороти. – Т. 22. – С. 74-76.

“O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDLARINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING GEOGRAFIK ASOSLARI”

Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi

13. Radjapov M. et al. Qoraqalpogiston hududining tabiati va tabiiy boyliklarining geografik organilish tarixi //in Library. – 2021. – T. 21. – №. 4. – С. 56-57.
14. Умаров, Е. К., Искендеров, А. Б., Раджапов, М. Я., & Айтуганова, А. К. Қорақалпоғистон Республикаси халқ хўжалигини ҳудудий такомиллаштириш муаммолари. *Ўзбекистон География жамияти ахбороти*, 22, 57-59.
15. Iskenderov A. B. GEOGRAPHICAL LOCATION OF CONSTRUCTION RAW MATERIAL RESOURCES IN THE REPUBLIC OF KARAKALPAKSTAN //Экономика и социум. – 2023. – №. 10 (113)-2. – С. 150-153.
16. Iskenderov A. B. THE CURRENT STATE OF USE OF NATURAL GAS FIELDS IN THE ISLET REGION OF THE REPUBLIC OF KARAKALPAKSTAN //Экономика и социум. – 2023. – №. 11 (114)-2. – С. 139-142.
17. Искендеров А. Б., Раджапов М. Я., Жолдасов А. К. Қорақалпоғистон Республикасини географик районлаштиришда табиий ресурсларнинг аҳамияти //Табиий ва иқтисодий географик районлаштиришнинг долзарб муаммолари. Илмий-амалий конференция материаллари.-Т.: УзМУ. – 2004. – С. 85-87.
18. Бекбулатова Г.А., Нурбаева А Основные факторы развития и размещения торгового обслуживания, "Экономика и социум" ISSN 2225-1545. №12(103) 2022.
19. Бекбулатова Г.А., Авезова Н. Региональные аспекты организации развития и размещения сфер торгового обслуживания. "Экономика и социум" ISSN 2225-1545. №12(103) 2022.
20. Бекбулатова Г.А., Наурузбаева Г.Т., Тажибаева Л. Проблемы и пути совершенствования сферы торгового обслуживания Республики Каракалпакстан // GEOGRAFIYA – KELAJAKKA NAZAR mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya, 2024.